



O'zbekiston Respublikasi **Markaziy banki**

Inflyatsiya va inflyatsion kutilmalar tahlili

Avgust 2025





Qisqartmalar

INI – iste'mol narxlari indeksi

YalM – yalpi ichki mahsulot

ICHNI – ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi

FAO – BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti

Tushunchalar

Bazaviy inflyatsiya

Mavsumiy va ma'muriy xususiyatga ega bo'lgan omillar ta'sirida bo'lgan ayrim tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishini hisobga olmagan holda hisoblanadigan inflyatsiya


Qisqartirilgan inflyatsiya

Narxi o'zgarishi eng yuqori va eng past bo'lgan hamda umumiy savatda vazni bo'yicha 30 foizni tashkil etadigan tovar va xizmatlarni hisobga olmagan holda hisoblanadigan inflyatsiya

INI medianasi

INI tarkibidagi tovar va xizmatlar narx o'zgarishlari bo'yicha tartiblanganda, yig'ma vazn 50 foizga yetadigan nuqtadagi inflyatsiya ko'rsatkichi


2025-yil yanvar-avgust oylarida umumiy inflyatsiya darajasi o'tgan yilga nisbatan pastroq shakllandi




- Energiya narxlari oshishi hisobiga xizmatlar guruhi inflyatsiyani oshiruvchi asosiy guruh bo'lib qolmoqda.
- Oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori shakllanib, **1,3 foizni** tashkil etdi.
- Umumi inflyatsianing o'tgan yilga nisbatan **4,5 foizgacha** pasayishi o'tgan yilgi energiya narxlari ta'siri tugashi hamda joriy yildagi ta'sir nisbatan kamroqligi bilan izohlanadi.

Avgust oyida umumiy inflyatsiya yillik 8,8 foizni tashkil qildi

Energiya narxlari ta'siri bilan, foizda





Energiya narxlari ta'sirisiz, foizda




- Energiya narxlari oshishining birlamchi ta'sirisiz umumiy inflyatsiya iyul oyiga nisbatan biroz pasayib, **7,6** foizga teng bo'ldi.

Bazaviy inflyatsiya darajasi pasayishda davom etib avgust oyida yillik 7,6 foizni tashkil etdi



- Bazaviy inflyatsiya** yil boshiga nisbatan **0,4** foiz bandga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6 foiz bandga**) yuqori bo'ldi.


Bazaviy inflyatsiyaning muqobil ko‘rsatkichlari dinamikasida ham pasayish kuzatilmoqda




- INI medianasi oyida pasayib, **4,7 foizni tashkil etdi** (yil boshiga nisbatan **0,1 foiz bandga**, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,2 foiz bandga** yuqori).
- Qisqartirilgan inflyatsiya darajasi ham pasayib, **5,6 foiz** darajasida saqlandi va yil boshiga nisbatan **0,2 foiz bandga**, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,3 foiz bandga** yuqori shakllandi.

Tarkibiy guruhlar bazaviy inflyatsiyasida ham pasayish kuzatildi

Asosiy guruhlar narxlarining yillik oshishi (foizda)




Umumiyl inflyatsiya dekompozitsiyasi (foiz bandda)



- Tarkibiy guruhlar bazaviy inflyatsiyasi pasayuvchi dinamikada shakllanmoqda. Shunga qaramay, xizmatlar bazaviy inflyatsiyasi 10 foizdan yuqori bo'lib qolmoqda.
- Meva va sabzavotlar guruhi inflyatsiyasining oshib borayotgani umumiyl inflyatsianing pasayishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bazaviy inflyatsiya va uning tarkibi o'zgarishi (1)


Bazaviy inflyatsiya tarkibi



Bazaviy inflyatsiya o'tgan davrga nisbatan pasayib, 7,6 foiz darajasida shakllandi.

Yanvar-avgust oylarida oziq-ovqatlar va xizmatlar bazaviy inflyatsiyasi oshiruvchi, nooziq-ovqatlar guruhni bazaviy inflyatsiyasi esa pasaytiruvchi ta'sirga ega bo'ldi.


Oziq-ovqatlar bazaviy inflyatsiyasi tarkibi



Yil boshiga nisbatan oziq-ovqatlar bazaviy inflyatsiyasi **1,7 foiz bandga** oshib, yillik **7,6 foizni** tashkil etdi.


Bazaviy inflyatsiya va uning tarkibi o'zgarishi (2)

Nooziq-ovqatlar bazaviy inflyatsiyasi tarkibi




Nooziq-ovqatlar bazaviy inflyatsiyasi yil boshiga nisbatan **0,9 foiz bandga** pasayib, yillik **5,4 foizni** tashkil etdi.

Xizmatlar bazaviy inflyatsiyasi tarkibi



Xizmatlar bazaviy inflyatsiyasi yil boshidan **1,2 foiz bandga** tezlashib, yillik **11,6 foizni** tashkil etdi.

INI tarkibida narxlari yillik 5 foizdan yuqori darajada oshgan tovar va xizmatlarning ulushi yuqoriligidicha qolmoqda




2025 yilning avgust oyida INI savatidagi **narxi 5 foizdan yuqori oshgan** tovar va xizmatlar o'rtacha **ulushi 2,3 foiz bandga** kamayib **56,7 foizni** tashkil etdi. Ularning iste'mol savatidagi **vazni esa 0,9 foiz bandga** kamayib **64,2 foizga** teng bo'ldi.

Bazaviy inflyatsiya darajasining barqaror pasayishini ta'minlash uchun narxi 5 foizdan yuqori qimmatlashgan tovar va xizmatlar ulushi barqaror kamayib borishi talab etiladi.

**Yanvar-avgust oylarida umumiy inflatsiyasi o'tgan yilning mos davriga
nisbatan sekinlashgan tovar va xizmatlar INI savatining
57 foizini tashkil qildi**

kumulyativ




2025


■ Tezlashgan ■ Sekinlashgan ■ O'zgarmagan

INI savatida narxlari yillik 5 foizdan kam oshgan tovar va xizmatlarning ulushi ortib, 10 foizdan yuqori oshganlar ulushi kamaymoqda


Umumiy inflyatsiya




Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlari




Xizmatlar




■ <0% ■ 0%-5% ■ 5%-10% ■ 10%-15% ■ >15%

2025-yil avgust oyida palov indeksida pasayish kuzatildi

Palov indeksi va oziq-ovqat narxlari yillik o'zgarishi va dekompozitsiyasi





Palov indeksi va oziq-ovqat narxlari o'zgarishi (2022-yil dekabr = 100)



- 2025-yil avgust oyida palov indeksi yillik hisobda pasaydi. Indeks tarkibidagi barcha mahsulotlar inflyatsiyasida sekinlashish kuzatildi.


Aholi va tadbirkorlar tomonidan sezilgan inflyatsiya, inflyatsion kutilmalar va ularning omillari



AHOLI	2024				2025							
	sen	okt	noya	dek	yanv	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	45	47	51	56	57	63	59	59	57	50	51	48
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	47	46	51	57	50	52	48	47	49	45	45	41
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	39	31	28	28	22	23	20	18	22	35	34	31
Transport xarajatlarining oshishi	28	26	30	35	30	31	28	29	32	30	27	26
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	25	24	26	26	26	28	28	26	25	22	24	26
Valyuta kursining o'zgarishi	50	51	51	55	46	41	39	38	37	27	30	24
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	29	28	31	33	25	32	26	26	26	24	24	22

TADBIRKORLAR	2024				2025							
	sen	okt	noya	dek	yanv	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	46	42	49	52	54	58	52	55	54	47	47	45
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	44	42	48	49	49	50	45	46	48	43	42	40
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	38	30	29	25	26	22	23	23	24	33	34	33
Transport xarajatlarining oshishi	31	29	32	34	32	34	31	31	37	32	31	31
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	51	50	51	52	51	43	43	43	40	31	31	25
Valyuta kursining o'zgarishi	27	25	25	25	25	27	25	27	28	25	25	24
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	27	23	25	27	24	27	26	27	27	25	26	24

Iste'mol narxlari indeksi (INI, umumiyl inflatsiya), YAIM deflyatori va ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (ICHNI) inflatsiyalari dinamikalari




II chorakda **YAIM deflyatori** I chorakka nisbatan 0,4 f.b.ga pasayib, yillik **12,4 foizni** tashkil etdi.


Iyul oyida **ICHNI** yillik inflatsiyasi **13,2 foiz** darajasida shakllandı.

FAO va jahon yuk tashish indekslari dinamikasi

FAO indeksi, yillik o'zgarish, foizda



Jahon yuk tashish indekslari



2025-yilning avgust oyida FAO indeksining yillik o'zgarishi **0,6 foiz bandga pasayib, 6,9 foizni** tashkil etdi. Go'sht, sut va don mahsulotlarda pasayish, yog' va shakar mahsulotlari narxlari o'sish kuzatildi. **Jahon yuk tashish indekslari** avgust oyida ham pasayuvchi dinamikada shakllandi.